Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Zilola Qurbonova – tayanch doktorant

Toshkent amaliy fanlar universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: zilolaqurbonova63@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-4376-5400

Baxtiyor Axmedov – o‘qituvchi

Toshkent amaliy fanlar universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: baxtiyoraxmedov290@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-5473-5147

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va zamonaviy til siyosati sharoitida maktabgacha hamda boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda chet tilini erta yoshdan o‘rganish bolalarning nutqi, tafakkuri va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kuzatish hamda psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar tilni taqlid, takrorlash, qo‘shiq, o‘yin va vizual vositalar orqali samarali o‘zlashtiradi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari esa dialog, rolli o‘yin va interfaol metodlar orqali yaxshiroq natijaga erishadi. Tadqiqot davomida motivatsiya va ijobiy psixologik muhitning til o‘rganishdagi muhim roli ham tasdiqlandi. Xulosa sifatida, psixologik jihatdan asoslangan va o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvlar ingliz tilini erta o‘qitish samaradorligini oshirishi hamda raqobatbardosh yosh avlodni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, psixologiya, boshlang‘ich ta’lim, maktabgacha ta’lim, til siyosati, motivatsiya.

Zilola Kurbanova – doctoral student
Tashkent University of Applied Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

Bakhtiyor Akhmedov – teacher
Tashkent University of Applied Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING ENGLISH IN PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article examines the psychological foundations of teaching English in preschool and primary education within the context of globalization and modern language policy. The study emphasizes that early foreign language learning plays an important role in the development of children’s speech, thinking, and communicative abilities. Comparative analysis, observation, and analysis of psychological-pedagogical literature were used as the main research methods. The findings reveal that preschool children acquire language effectively through imitation, repetition, songs, games, and visual materials, while primary school learners benefit more from communicative and interactive methods such as dialogues and role-playing activities. The study also confirms the

significant role of motivation and positive psychological environment in language acquisition. The article concludes that psychologically based and learner-centered approaches increase the effectiveness of early English language teaching and contribute to the development of globally competitive learners.

Key words: English teaching, psychology, primary education, motivation

Зилола Курбанова – базовый докторант
Ташкентский университет прикладных наук (Ташкент, Узбекистан)

Бахтиёр Ахмедов – преподаватель
Ташкентский университет прикладных наук (Ташкент, Узбекистан)

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ДОШКОЛЬНОМ И НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические основы преподавания английского языка в дошкольном и начальном образовании в условиях глобализации и современной языковой политики. В исследовании подчеркивается важная роль раннего изучения иностранного языка в развитии речи, мышления и коммуникативных способностей детей. Исследование основано на теориях Л.С. Выготского, Ж. Пиаже, а также современных коммуникативных подходах, разработанных Л. Кэмерон, П. Лайтбаун и Н. Спада. В ходе исследования были использованы методы сравнительного анализа, наблюдения и изучения психолого-педагогической литературы. Результаты показали, что дети дошкольного возраста эффективно усваивают язык через подражание, повторение, песни, игры и визуальные средства, тогда как учащиеся начальных классов достигают лучших результатов с помощью диалогов, ролевых игр и интерактивных методов. В процессе исследования также была подтверждена важная роль мотивации и положительной психологической среды в изучении языка. В заключение отмечается, что психологически обоснованные и ориентированные на учащегося подходы повышают эффективность раннего обучения английскому языку и способствуют формированию конкурентоспособного молодого поколения.

Ключевые слова: английский язык, психология, начальное образование, мотивация.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro aloqa, ilm-fan va texnologiya tiliga aylangan. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda ingliz tilini erta yoshdan boshlab o‘qitish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda (Cameron, 2001; Lightbown, 2013). Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida ingliz tilini o‘qitish masalasi esa nafaqat metodik, balki psixologik asoslangan yondashuvni talab etadi.

Bolaning ilk rivojlanish bosqichlari uning nutq, tafakkur va ijtimoiy moslashuv qobiliyatining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega (Vygotsky, 1982). Aynan shu davrda tilni o‘zlashtirish jarayoni tabiiy va samarali kechadi. Shu bois ingliz tilini erta o‘qitish jarayonida bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va individual farqlarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar til o‘rganish jarayonining psixologik asoslari, yosh xususiyatlari va samarali metodlarni aniqlashga qaratilgan.

Til o‘rganishning psixologik jihatlari L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy nazariyada chuqur asoslab berilgan (Vygotsky, 1982). Unga ko‘ra, bolaning nutqi va tafakkuri ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanadi va o‘rganish jarayoni muloqot orqali amalga oshadi. Ayniqsa, “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi

o‘quvchilarga moslashtirilgan ta’limni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

J. Piaget esa bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, ularning fikrlash jarayoni yoshga qarab o‘zgarishini asoslab bergan [(Piaget, 1969). Uning nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar konkret obrazlar orqali fikrlaydi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida esa mantiqiy tafakkur shakllana boshlaydi. Bu esa ingliz tilini o‘qitishda metod tanlashda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy metodik yondashuvlarda, xususan, L.Cameron tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarda bolalarga til o‘rgatishda kommunikativ yondashuv va o‘yin texnologiyalarining ahamiyati alohida ta’kidlangan (Cameron, 2001). Shuningdek, P.Lightbown tadqiqotlarida til o‘rganish jarayonida tabiiy muhit, takrorlash va motivatsiyaning roli ilmiy asosda yoritilgan (Lightbown, 2013).

Mahalliy tadqiqotlarda ham ingliz tilini erta o‘qitish masalasi ta’lim tizimidagi muhim yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, O‘zbekiston ta’lim siyosatida ingliz tilini maktabgacha va boshlang‘ich bosqichlardan boshlab o‘qitish orqali yosh avlodning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Mazkur tadqiqotda ingliz tilini o‘qitish jarayonini o‘rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish orqali mavjud nazariy qarashlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy va milliy tajribalar solishtirildi hamda ularning o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, kuzatish metodi orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni tahlil qilindi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning darsdagi faolligi, motivatsiyasi va o‘qitish metodlariga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish orqali ilmiy xulosalar chiqarildi. Mazkur metodologik yondashuv ingliz tilini o‘qitishda psixologik omillarni aniqlash va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini baholash imkonini berdi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitishda psixologik yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda til o‘zlashtirish asosan taqlid va emotsional qabul qilish orqali amalga oshib, bu o‘yin asosidagi metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi (Vygotsky, 1982; Cameron, 2002). Ushbu holat L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi bilan mos keladi (Vygotsky, 1982).

Shuningdek, natijalar J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasini ham tasdiqlab, maktabgacha yoshda konkret va vizual o‘qitish, boshlang‘ich bosqichda esa interfaol va kommunikativ metodlar samarali ekanligini ko‘rsatdi (Piaget, 1969; Lightbown, 2013). Zamonaviy tadqiqotlar ham ingliz tilini erta o‘qitishda o‘yin, muloqot va tabiiy muhitning ahamiyatini tasdiqlaydi. Til siyosati nuqtai nazaridan esa ingliz tilini erta o‘qitish yosh avlodning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim muammolar, jumladan, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi va psixologik muhitning har doim ham to‘g‘ri tashkil etilmasligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, ingliz tilini o‘qitishda psixologik omillarni hisobga olish, zamonaviy metodlarni qo‘llash va til siyosati talablariga mos yondashuvni joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqola natijalari amaliy jihatdan o‘qituvchilar va tarbiyalanuvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida ingliz tilini o‘qitishda psixologik omillarning muhim rol o‘ynashini tasdiqladi. Kuzatishlar va qiyosiy tahlil asosida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda til birliklarini o‘zlashtirish jarayoni asosan taqlid, eshitish va takrorlash orqali samarali amalga oshadi. Ayniqsa, qo‘shiq, she’r, rasmlar va o‘yin elementlari qo‘llanilgan mashg‘ulotlarda bolalarning yangi so‘zlarni eslab qolish darajasi an’anaviy tushuntirish metodlariga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarda esa ingliz tilini o‘zlashtirishda kommunikativ va interfaol metodlarning samaradorligi aniqlandi. Rolli o‘yinlar, dialoglar, guruhli ishlanmalar va savol-javob asosidagi topshiriqlar

o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, bunday metodlardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki va mustaqil fikr bildirish ko‘rsatkichlari sezilarli ravishda oshdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi va ijobiy psixologik muhit o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Rag‘batlantirish, maqtov va xatolarga nisbatan yumshoq yondashuv qo‘llanilgan holatlarda bolalarda ingliz tiliga qiziqish kuchaygani, ularning erkin nutq faoliyati faollashgani kuzatildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, davlat til siyosati asosida erta yoshdan chet tilini o‘qitish nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni, balki bolalarning kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda psixologik yondashuvga asoslangan metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni psixologik jihatdan asoslangan holda tashkil etilishi zarur. Erta yoshda til o‘rganish bolalarning tabiiy qobiliyatlariga mos keladi va bu jarayon samarali natijalar beradi. Ayniqsa, o‘yin asosidagi metodlar, interfaol yondashuvlar va ijobiy psixologik muhit ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, til siyosati doirasida ingliz tilini erta o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash zamonaviy ta’lim tizimining muhim talabi hisoblanadi. Bu esa nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki kelajakda raqobatbardosh, bilimli va kommunikativ shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Cameron, L. (2001). *Teaching languages to young learners*. Cambridge University Press.
2. Ellis, R. (1997). *Second language acquisition*. Oxford University Press.
3. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). *How languages are learned* (4th ed.). Oxford University Press.
4. Piaget, J. (1969). *The psychology of the child*. Basic Books.
5. Vygotsky, L. S. (1982). *Thought and language*. Pedagogika.
6. Qosimova, N. F., & Xaydarova, L. X. (2020). *Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi*. O‘qituvchi.
7. Xolikova, N. (2021). *Methodology of teaching English in preschool and primary education*. Universitet nashriyoti.